HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Adabiyot va kitobxonlik madaniyati – jamiyat ma’naviyatining mezoni

Shakarova Azizabonu Saydulla qizi
Nizomiy Ganjaviy nomidagi O‘zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti
Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi
Tel: +998884361108
doi:https://doi.org/10.5281/zenodo.23344322

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson hayotida adabiyotning o‘rni qanchalik ekani, inson omiliga ta’siri haqida so‘z yuritiladi. Mustamlakachilik zulmidan qanchadan- qancha buyuk ulamolarimizning ta’qib ostiga olingani, lekin shunday bo‘lsa ham ajdodlarimiz bir zum taslim bo‘lmay, ilm-fanni o‘zlariga qurol bilib mardonavor kurash olib borganlari tavsiflanadi. Istiqlol zamonida ilm va ijod ahillarining ko‘ksiga shamol tegdi. Yurt rahbarlari tomonidan adabiyotga homiylik qilinib, kitobxonlik targ‘ib etildi. Zeroki ma’naviyat xalqning ko‘zga ko‘rinmas qurolidir. Quyida shular haqida batafsil ma’lumot berib o‘tiladi.
Kalit so‘zlar: Kitobxonlik, millat, adabiyot, islohot, ma’naviyat, mutolaa, “Yosh Kitobxon”, “5 tashabbus”, taraqqiyot, “Ma’rifat karvoni”, axborot.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль литературы в жизни человека и её влияние на человеческий фактор. Описывается, как многие наши великие учёные подвергались преследованиям со стороны колониальной оккупации, но, несмотря на это, наши предки ни на секунду не сдавались и храбро боролись, используя науку как своё оружие. В эпоху независимости в сердцах людей науки и творчества дул ветер. Лидеры страны спонсировали литературу и поощряли чтение. Потому что духовность — это невидимое оружие народа. Ниже приведена подробная информация об этом.
Ключевые слова: чтение книг, нация, литература, реформа, духовность, чтение, «Юный читатель книг», «5 инициатив», развитие, «Караван Просвещения», информация.

Abstract: This article discusses the role of literature in human life and its impact on the human factor. It describes how many of our great scholars were persecuted by colonial oppression, but even so, our ancestors did not give up for a moment and fought bravely, using science as their weapon. During the independence era, the wind blew in the hearts of people of science and creativity. The country's leaders sponsored literature and promoted reading. Because spirituality is the invisible weapon of the people. Below is detailed information about these.
Keywords: Book reading, nation, literature, reform, spirituality, reading, "Young Book Reader", "5 Initiatives", development, "Caravan of Enlightenment", information.

Kirish. Bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish mamlakatimizning eng katta islohotlaridan biri hisoblanadi. Barchamizga ma’lumki, adabiyot ko‘ngillarga izohsiz yo‘l topadigan ma’naviyat majmuasidir. Hech bir inson yo‘qki, adabiyotning sehrli so‘zlari jilosidan eti jimirlamasa. Buyuk asar o‘zini ko‘z-ko‘z qilmasa ham kitobxonning o‘zi uni o‘qishga oshiqadi. Adabiyot shunday narsa – u yurtning dovrug‘ini hech bir kuch ishlatmasdan, sukunatda dunyolarga tanitishga qodir. Hozirda kitobxonlikni rivojlantirish uchun Yurtboshimiz tomonidan ham bir qancha islohotlar,

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

qanchadan-qancha qonun farmoyishlar qabul qilinmoqda. Xususan, “Yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus” da ham ushbu sohani rag‘batlantirish bo‘yicha so‘z yuritiladi. Shuningdek, “Yosh kitobxon”, “Mutolaa”, “Ziyo maskanlari” loyihalari ham shular jumlasidandir.

Asosiy qism. Adabiyot shunchaki so‘zlar jamlanmasi emas, balki millatning ruhiy holatini belgilovchi mezondir. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, har qanday madaniy yuksalish avvalo kitobga, mutolaaga bo‘lgan e’tiborning ortishi bilan boshlanganini ko‘ramiz. Kitobxonlik madaniyati jamiyatda qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘sha jamiyatda ma’naviy inqirozga o‘rin qolmaydi. Jamiyatning ma’naviy qiyofasi uning a’zolari mutolaa qilayotgan kitoblarning saviyasi bilan o‘lchanadi. Zero, kitobxon inson nafaqat o‘zining ichki dunyosini boyitadi, balki atrofidagilarga ham ma’rifat ulashuvchi markazga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda kitobxonlikni targ‘ib qilish shunchaki tavsiya emas, balki milliy o‘zlikni anglashning hayotiy zarurati hisoblanadi. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy kitobni “beminnat ustoz” deb ta’riflagani ham bejizga emas. Bugungi globallashuv davrida, axborot oqimi shiddat bilan o‘sib borayotgan bir paytda, saralangan adabiyotlarni mutolaa qilish inson uchun ma’naviy mayoq vazifasini o‘taydi. Adabiyotga qaytish aslida tarbiyaga, axloqqa va o‘zlikka qaytishdir.

Mustamlakichilik davri adabiyoti bilan istiqlol davri adabiyotini solishtiradigan bo‘lsak, ular o‘rtasida juda katta farqni ko‘ramiz. Yurtimiz boshiga qora bulutlar rahna solgan paytlarda, ilmkushlar tomonidan adabiyot ahllari ko‘plab ta’qiblarga uchradi. Ularning asarlari yo‘q qilindi. Ma’naviyat mezoni faqatgina yangi asarlar yozish bilan emas, balki borini asrab qolish bilan o‘lchanadi. Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir kabi otashnafas ajdodlarimizning bebaho asarlari yo‘q qilingani millat tafakkur xazinasiga berilgan qaqshatqich zarba edi. Agar o‘sha qo‘lyozmalar saqlanib qolganida, bugungi kitobxonlik madaniyati mutlaqo boshqa, yanada yuksakroq darajada bo‘lishi shubhasiz edi. Shunga qaramay jonkuyar, vijdonini moddiyatdan ustun qo‘ygan insonlar sababli ajdodlarimiz qoldirgan durdonalarning bir qismini asrab qola oldik. Bugun esa ularning bulog‘idan suv ichmoqdamiz.

Mustaqillik yillariga kelib, Halima Xudoyberdiyeva, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, O‘tkir Hoshimov, Tohir Malik, Sharof Boshbekov, Muhammad Yusuf singari adabiyot namoyandalari yarq etib ko‘zga tashlandi. Adabiyot kichik bir nina emaski, uni yashirishning iloji bo‘lsa. Mana hozirgacha sifatli asarlar to‘lamining keti nashriyotlardan uzilmayabdi. Har bir ijodkor o‘z asarlari orqali yurt ravnaqiga hissa qo‘shish uchun yelib-yugurib xizmat qilmoqda. Bularning tag zamirida esa mamlakat ongini yuksaltirish, xalqning ma’naviyatini boyitish yotadi. Ma’naviyat tushunchasining mazmuni faqat “ma’ni”, “ma’no” degan so‘zlar doirasida chegaralanib qolmaydi. Sababi insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan alohida o‘rin tutadi. Ma’naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e’tiqodini butun qiladigan vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.[1] Ma’naviyatli xalq bu shunchaki o‘tmishi boy yoki tili boy xalq emas, balki o‘zligini anglagan, milliy qadriyatlarini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg‘unlashtira olgan jamiyatdir. Ma’naviyatli xalqning kuchi uning qurolida emas, balki uning madaniyati, axloqi va ilmga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi.

[1] Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – 9-b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Adabiyot yashasa millat yashar.[2] Bu ibora nafaqat shior, balki millatning mavjudlik kalitidir. Mashhur jadidchi bobomiz Cho‘lpon tomonidan aytilgan ushbu otashin so‘zlar adabiyot olamida hanuzgacha bebaho chaqiriqqa aylangan. Adabiyot tilning eng oliy ko‘rinishidir. Til yashasa, millat yashaydi, adabiyot esa tilni boyitadi, uni oddiy muloqot vositasidan san’at darajasiga ko‘taradi. Qatag‘on yillarida millatning tilini, ruhini yo‘qotish uchun avvalo uning adabiyoti nishonga olingan. Buyuk jadidlarimizning jismonan yo‘q qilinishi va asarlarining yoqib yuborilishi millatni tom ma’noda manqurtga aylantirishga bo‘lgan urinish edi. Millatni millat sifatida tanitadigan narsa uning hududi yoki boyligi emas, balki dunyo tamadduniga qo‘shgan adabiy merosidir. Navoiy yashagani uchun o‘zbek tili jahonning eng boy tillari qatoridan joy oldi. Usmon Nosir she’riyati millatning qalbini uyg‘oq tutdi. Adabiyoti o‘lgan xalqning o‘tmishi unutiladi, kelajagi esa boshqa millatlarning ma’naviy asoratiga tushib qoladi. “Adabiyot yashasa millat yashar” degani millatning tafakkuri to‘xtab qolmasligi demakdir. Badiiy asar mutolaa qilayotgan inson voqelikka boshqalarning ko‘zi bilan emas, o‘zining mustaqil fikri bilan qaray boshlaydi. Kitobxon xalqni aldash, qul qilish yoki yo‘ldan urish imkonsiz. To‘xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar bilan kirlangan ruhimiz uchun ham shu qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o‘lmagan va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o‘ydan, fikrdan mahrum qolib sekin-sekin inqiroz bo‘ladi. Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan majruh yarador ko‘ngilga ruh bermoq uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydigan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadigan toza ma’rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladigan, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artib tozalaydigan buloq suvi bo‘gani sababli ham bizga g‘oyat kerakdir. Ba’zi vaqtlarda falak bir odamni qayg‘uga solib, uning o‘zi tushunib, o‘ylay turib, ox tortib yig‘laydi. Shunday paytlar bo‘ladiki, bu hasratlarini o‘z ichiga sig‘dira olmaydi. Birovga aytsa, hijolat bo‘lib, aytganda ham u qadar ta’sir qilmaydi. Adabiyot bilan aytganda, albatta, ta’sir qiladi. [3] Adabiyot faqat badiiyati orqaligina, ya’ni teran hayotiy mazmunni, muhim hayot haqiqatini odamlarni hayajonlantiradigan, to‘lqillantiradigan badiiy shakllarda ifodalaganidagina jamiyat ehtiyojini qondira oladigan qudrat kasb etadi.[4] Xususan, buyuk yozuvchi, har bir so‘zni eng saralarini ishlatuvchi ijodkor Abdulla Qahhor adabiyotga shunday ta’rif bergan: “Adabiyot atomdan kuchli, uning kuchini o‘tin yorishga sarflamaslik kerak”. Adabiyot olamida allaqachon takrorlanmas aforizmga aylangan ushbu ibora adabiyotning chinakam san’at ekanligini, uni siyosatga bog‘lab qo‘ymaslik zarurligini, so‘z zargarligi orqali yuksak g‘oyalarni ilgari surish kerakligini anglatgan. shularni inobatga olgan holda bugungi kunda yurtimizda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik targ‘ib qilinmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda kitobxonlikni davlat siyosati darajasiga ko‘tarish va aholi ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak

[2] Cho‘lpon. Ozod sharafiddinov. Ijodni anglash baxti – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004 – 1-b.

[3] Cho‘lpon. Ozod sharafiddinov. Ijodni anglash baxti – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004 – 66-69-b.

[4] Ozod sharafiddinov. Ijodni anglash baxti – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004 – 68-b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi”. Madaniyat yoshlikdan, insonni bolalar bog‘chasida, maktabda kitob o‘qishga o‘rgatishdan boshlanadi.[5]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 19-mart kuni yoshlarni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirishga qaratilgan beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Ushbu beshta tashabbusning to‘rtinchisi, ya’ni aholi, ayniqsa, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish yosh avlodning intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Mamlakatda 11 092 ta kutubxona va axborot resurs markazlari mavjud, shundan, 9911 tasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim maktablarida, 981 ta oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, 14 tasi hududlarda, 186 tasi tuman (shahar)larda faoliyat ko‘rsatadi.

2018-2019-yillarda nashriyotlarda darsliklardan tashqari 1 587 nomda 21 640 mingdan ortiq nusxada kitob chop etilgan.

2017 — 2019-yillarda O‘zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan nashriyotlarga 16 018 ta (2017-yilda 4911 ta, 2018-yilda 5334 ta, 2019-yilda 5773 ta) ISBN (International Standard Book number) kitobning xalqaro standart tartib raqami taqdim etilgan.

Respublikadagi jami maktablarda badiiy adabiyotlar soni har bir o‘quvchiga o‘rtacha 3 tadan, ta’lim qardosh tilda olib borilayotgan maktablarda esa 1,7 tadan to‘g‘ri keladi. Ta’lim qardosh tillarda olib borilayotgan maktablar kutubxonalarining jami adabiyotlar fondi 1,6 mln. nusxadan iborat bo‘lib, shundan qardosh tillardagi badiiy adabiyotlar soni 320 mingtani (jami adabiyotlar fondining 20 foizini) tashkil etadi va har bir o‘quvchiga 0,4 ta kitobdan to‘g‘ri keladi.

Birinchi marta 2019-yil 2 — 4-oktabr kunlari mamlakatimizda ixtisoslashgan “Tashkent book fest — 2019” I Xalqaro kitob ko‘rgazma-yarmarkasi tashkil etilib, unda Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston davlatlarining 20 ga yaqin va 30 dan ortiq mahalliy nashriyotlar, 15 ming nafardan ortiq soha mutaxassislari, keng jamoatchilik vakillari hamda yoshlar ishtirok etdi.

“Ma’rifat karvoni” tadbirlari doirasida 3 milliondan ortiq kitob yoshlarga yetkazib berildi, “Yoshlar kutubxonasi” rukni ostida 59 ta nomda 590 ming ta badiiy adabiyot chop etilib, respublikamizdagi barcha ta’lim muassasalari kutubxonalariga tarqatildi.

An’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “Yosh kitobxon” tanlovi bilan 2017 — 2019-yillar davomida 2 mln 170 mingdan ortiq yoshlar qamrab olinib, 9 nafar tanlov g‘oliblari bo‘lgan yosh kitobxonlar Prezident sovg‘asi “Spark” avtomashinasi sovrindori bo‘ldi. Xususan Yurtboshi tomonidan quyidagi islohotlar ham qo‘llab-quvvatlanmoqda:

Avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash;

Milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;

Kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish;

---

[5] Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz 1-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2017 – 86-b.

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

Kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to‘ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;

Aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o‘rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish;

Xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish.[6]

Ushbu islohotlar orqali yurtimizda kitobxonlik naqadar keng rag‘batlantirilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Kechagina o‘z asarlarini yashirincha chop etayotgan, milliy qadriyatini ochiqchasiga himoya qila olmagan, o‘z erkini, istiqlolini baralla ayta olmagan kunlarimiz ortda qoldi. Endi biz mustaqil O‘zbekiston farzandlarimiz. Bugungi kunimizda ilm olish uchun, ma’naviyatimizni yuksaltirish uchun barcha shart-sharoitlar yetarli. Hozirgi kunda har bir qadamimizda turli xil gadjetlarni emas, balki kitoblarni ko‘tarib yurganimizda, ma’naviyatimiz har qachongidan ham ziyoda bo‘lar edi. Albatta, zamon talabi shuni taqozo etayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, har ikki tarafni ham muvozanatda ushlab tursak, maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, adabiyot va kitobxonlik madaniyati shunchaki shaxsiy qiziqish emas, balki millatning omon qolish sharti, uning ma’naviy quyoshidir. Tarix saboqlari shuni ko‘rsatadiki, millatni yo‘q qilishni istaganlar, avvalo, uning kitoblariga va ziyolilariga hujum qilganlar. Ular tomonidan ziyoli ajdodlarimizning qatag‘on qilinishi va ularning bebaho she’riy romanlarining yo‘q qilingani xalqimizning ma’naviy xazinasiga berilgan eng og‘ir zarbalardan biri edi. Biroq, adabiyotga bo‘lgan muhabbatni xalq qalbidan o‘chirib bo‘lmasligini vaqt isbotladi.

Bugungi kunda yurtboshimiz tomonidan ilgari surilayotgan islohotlar, "Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi" degan ezgu g‘oya atrofidagi birlashishimiz, bu aslida o‘sha boy berilgan merosni tiklash va yangi Renessans poydevorini qo‘yishdir. "Yosh kitobxon" tanlovlari, yangi qurilayotgan muhtasham kutubxonalar va nashr etilayotgan jahon adabiyoti durdonalari millatning ma’naviy mezonini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Zero, adabiyot yashasa — millat yashaydi. Kitob o‘qigan avlodgina o‘zligini anglaydi, ajdodlar ruhiga munosib bo‘ladi va ertangi kunning yuksak ma’naviyatli jamiyatini barpo eta oladi. Shunday ekan, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish — har birimizning millat oldidagi muqaddas burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch – Toshkent: Ma’naviyat, 2010.
2. Ozod sharafiddinov. Ijodni anglash baxti – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2004.
3. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004
4. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror (Dostonning ixcham nasriy bayoni) – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009
5. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz 1-jild – Toshkent: O‘zbekiston, 2017

[6] 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni

HSR (LONDON),
HOUGHTON STREET REVIEW JOURNAL
ISSN: 2058-5519|Impact factor-15.9
http://houghtonstreetreview.com/index.php/hsr

6. 2020 — 2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni